

TARKIBIDA VITAMINLAR SAQLAGAN DORIVOR O'SIMLIKLAR VA ULARNING MAHSULOTLARI

Jo'rayeva Zilola Abdug'afarovna

*Pop Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat Salomatligi Texnikumi
Farmakognoziya va Botanika asoslari fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Vitaminlarning unson hayot faoliyatidagi ahamiyati qanchalar muhimligi to'g'risida. Hamma vitaminlar, u kam miqdorda bo'lsa ham inson organizmida muhim vazifalarni bajaradi.

Kalit so'z: Vitamin, Vita, Oqsil, yog', uglevod, gipovitaminoz, avitaminoz, gipervitaminoz,

Vitamin odam va hayvonlar hayvonlar uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan, turli kimyoviy tuzilishdagi organic birikmadir. Organizm uchun juda katta miqdorda talab etiladigan(oqsil, yog' va uglevodlardan farqi) bu birikmalar fermentlar molekulasi tarkibiga kirib, to'qimalardagi moddalar almashinuvida ishtirok etadi.

Odam va hayvonlar organizmi vitaminlarni faqat o'simliklardan oziq ovqat bilan birga oladi. Shuning uchun ovqat mahsulotlari tarkibida biror vitamining bo'lmasligi yoki yetishmasligi odam va hayvonlar organizmida moddalar almashinuvining buzilishiga keyinchalik esa Avitaminoz hamda Gipovitaminoz deb ataladigan og'ir kasalliklar vujudga kelishiga sabab bo'ladi.

Vitaminlar organizmning normal ishlashi uchun zarur bo'lgan organik birikmalar bo'lib, ular organizm tomonidan ishlab chiqarilmaydi. Quyida inson tanasining sog'lom bo'lishi uchun zarur bo'lgan muhim vitaminlar ro'yxati keltirilgan:

- A vitamini (retinol)
- Vitamin B1 (tiamin)
- Vitamin B2 (riboflavin)
- Vitamin B3 (nikotinik kislota)
- Vitamin B5 (pantotenik kislota)
- Vitamin B6 (piridoksin)
- Vitamin B9 (foliy kislotasi)
- B12 vitamini (sianokobalamin)
- C vitamini (askorbin kislotasi)
- D vitamini (kalsiferol)

- E vitamini (tokoferol)

Har bir vitamining o'ziga xos funksiyalari va sog'liq uchun foydalari bor va inson tanasi uchun muhimdir. Balansli va sog'lom ovqatlanish ko'pchilikni kerakli vitaminlar bilan ta'minlashga yordam berad

O'simliklar o'sa boshlagan birinchi kunidan boshlaboq to'qimda vitaminlar biosintezi boshlanadi. Ular miqdori o'simlikning o'sish davrida doimo o'zgarib turadi. Bu o'zgarish juda ko'p omillarga bog'liq. Xususan, o'simlikning o'sish joyi va iqlimi, yorug'lik, mineral va organik o'g'itlar, namlik, mikroelementlar, tuproqdagi mineral tuzlar tarkibi va konsentratsiyasi hamda kislotali sharoit vitaminlarning biosinteziga ta'sir etuvchi omillar hisoblanadi. Quyida tarkibida vitamin saqlagan o'simliklar tibbiyotda juda katta ahamiyatga ega.

Qora Qoraqt (Smorodina) bargi va mevasi-Folia et fructus ribis nigri - Bu o'simlik ttarkibida 400mg % gacha askorbin kislota, vitamin P va efir moyi saqlaydi. Mevasi tarkibida 568mg% gacha askorbin kislota, 3% karotin, vitamin B₁, B₂, B₆, K₁ va 2,5-4,5 % gacha organik kislotalar saqlaydi. Qora qoraqt bargi va mevasi preparatlari singa hamda gipo- va avitaminoz kasalliklarini davolashda ishlatiladi.(1-rasm)



Chetan mevasi- Fructus Sorbi- Chetan mevasi tarkibida 160mg% askorbin kislota, vitamin P, 18 mg% karotin, 8% gacha organic kislotalar (limon, vino va olma kislotalar), achichiq glikozid, 8.8 % gacha qandlar, oshlovchi moddalar, flavonoidlar efir moyi, sorbit spirit va birikmalar bo'ladi. Urug'tarkibida amygdalin glikozidi va 22 % gacha yog', bargida 200mg % vitamin C bor. Chetan mevasi tibbiyotda sing ava boshqa avitaminoz kasalliklarini davolashda hamda shu kasallikalarning oldini olishda ishlatiladi.Ho'l mevasidan vitaminli sharbat olinadi.(2-rasm)

Chakanda mevasi va moyi–Fructus et oleum Hippophayos -Cahakanda o'simligining mevasi tarkibida 450mg% vitamin C, vitamin B₁, B₂, 145 mg % vitamin E , 60 mg% karotin va boshqa karotinoidlar, folat kislota, 9 % gacha yog', falavanoidlar va boshqa moddalar saqlaydi. Davolash uchun ishlatiladigan chakanda moyi siqib shirasi olingan mevadan kungaboqar moyida ekstraksiya qilib olinadi. Chakanda moyi yarimquriydigan, quyuq konsentratsiyali, to'q sariq, o'ziga xos hidga va mazaga ega. Chakanda moyi og'riq qoldiruvchi va yarani tez bitiradigan ta'sirga ega. Moy tarkibida 180-300mg % karotinoidlar vitamin E va F



bo'ladi. Radioaktiv nurlar bilan davolanganda uning ta'siridan zararlangan teri, shilliq pardalar, yaralar va kuygan qizilo'ngach hamda me'da shilliq qavatlari, me'da yarasi, vitamin yetishmasligidan kelib chiqqan avitaminoz hamda ba'zi ginekalogik kasalliklarini davolashda ishlatiladi.(3-rasm)



Tirmoqgul guli- Flores Calendulae mahsulot tarkibida 7,6-7,8 mg% karotin, efir moyi, 0,33-0,88 % flavanaoidlar, kumarinlar, 4% gacha shilliq, 10,64-11,2% oshlovchi moddalar 19 % gacha achchiq modda kalenden, 6,84 % olm ava oz miqdorda salitsil kislota kabi moddalar bo'ladi. Mahsulotning dorivor preparatlari turli yaralar, kuyganni davolashda, stomatit, angina va tomoq og'riq kasallikalrida, og'iz hamda tomoqni chayqash uchun ishlatiladi. Kaleflon preaparati me'da va o'n ikki barmoq ichak yara kasalligida yara bitishini tezlashtiruvchi va yallig'lanishiga qarshi vosita sifatida hamda gastritni davolashda ishlatiladi.(4-rasm)

Vitaminlar o'zi turg'un birikma bo'lsa ham ma'lum sharoitda oksidlanishi, parchalanishi yoki boshqa o'zgarishlarga uchrashi mumkin. Natijada vitaminlar o'zining biologic faolligini yo'qotadi. Vitaminli mahsulotlarning yuqori sifatliliginini saqlab qolish uchun ularni tayyorlash, quritish va saqlashda yuqorida ko'rsatilgan sharoitlarni hisobga olish zarur.

Adabiyotlar:

1. H.X.Xolmatov, O'. A. Ahmedov "Farmakognoziya va Botanika asoslari" tibbiyot kollejlari uchun darslik O'qituvchi nomidagi nashriyot Toshkent 2007-yil.(68-74 bet)
2. H.X.Xolmatov, O'. A. Ahmedov "Farmakognoziya" darslik Cho'lpon nomidagi nashriyot Toshkent 2008-yil.(116-124 bet)
3. B.P.Berdimurodov, P.Q. Turdiyev, N.A. Alimova "Farmakognoziya va Botanika asoslari" o'quv qo'llanma Toshkent 2022-yil (93-100 bet)

Internet saytlari:

1. www.ziyonet.uz
2. www.google.uz
3. www.arxiv.uz